Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ
UDK: 371.3:004
ORCID: 0009-0003-6758-0839

MO'MINOV ISROIL XUDOYSHUKUR O'G'LI
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti
E-pochta: muminovisroil318@gmail.com

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KRITIK FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qish savodxonligi darslarining imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, muammoli ta'lim hamda matn bilan ishlash strategiyalarining samaradorligi tahlil qilindi. Tajriba natijalari o'qish savodxonligi darslarida refleksiv faoliyat, matn tahlili va muammoli topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning tahliliy fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarishi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatdi.

KALIT SO'ZLAR: *o'qish savodxonligi, kritik fikrlash, interfaol metodlar, didaktik sharoit, muammoli ta'lim, refleksiya, matn tahlili, kompetensiyaviy yondashuv, boshlang'ich ta'lim, kreativ fikrlash, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash.*

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИХ РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются дидактические условия формирования навыков критического мышления учащихся на уроках читательской грамотности. Основная цель исследования заключается в определении возможностей уроков читательской грамотности в развитии самостоятельного и критического мышления учащихся начальных классов. В ходе исследования анализировалась эффективность компетентностного подхода, интерактивных методов, проблемного обучения и стратегий работы с текстом. Результаты исследования показали, что использование рефлексивной деятельности, анализа текста и проблемных заданий способствует развитию аналитического мышления, логических выводов и навыков самостоятельного принятия решений.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *читательская грамотность, критическое мышление, интерактивные методы, дидактические условия, проблемное обучение, рефлексия, анализ текста, компетентностный подход, начальное образование, креативное мышление, педагогическая технология, самостоятельное мышление.*

DIDACTIC CONDITIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS IN READING LITERACY LESSONS

ABSTRACT: This article examines the didactic conditions for developing students' critical thinking skills in reading literacy lessons. The main purpose of the research is to determine the possibilities of reading literacy lessons in developing independent and critical thinking skills of primary school students. The study analyzed the effectiveness of competency-based approaches, interactive methods, problem-based learning, and text analysis strategies. The results showed that the use of reflective activities, text analysis, and problem-based tasks contributes to the development of students' analytical thinking, logical reasoning, and independent decision-making skills.

Keywords: *reading literacy, critical thinking, interactive methods, didactic conditions, problem-based learning, reflection, text analysis, competency-based approach, primary education, creative thinking, pedagogical technology, independent thinking.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. "Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchi faqat tayyor bilimlarni egallovchi emas, balki axborotni tahlil qiluvchi, baholovchi, solishtiruvchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida shakllanishi lozim" [1; 16-b].

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. "Xususan, o'qish savodxonligi o'quvchilarning nafaqat matnni o'qib tushunishi, balki uni tahlil qilishi, muallif fikrini baholashi hamda matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildira olishini ham nazarda tutadi" [2; 74-b].

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs tafakkuri shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu sababli aynan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish keyingi bosqichlardagi ta'lim samaradorligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi [3; 92-b].

"O'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Chunki matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi:

1.axborotni qabul qiladi;
2.uni qayta ishlaydi;
3.asosiy g'oyani aniqlaydi;
4.sabab-oqibat munosabatlarini topadi;
5.xulosa chiqaradi;
6.shaxsiy munosabat bildiradi.

Mazkur faoliyatlar kritik fikrlashning asosiy komponentlari hisoblanadi" [4; 33-b].

"So'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlarida, xususan PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi ularning tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlari bilan bevosita bog'liq holda baholanmoqda" [5; 81-b]. Bu esa milliy ta'lim tizimida ham o'qish savodxonligi darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni talab etmoqda.

"Kritik fikrlash – bu shaxsning axborotni ongli ravishda tahlil qilishi, dalillarni baholashi, asoslangan qaror qabul qilishi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir" [6; 41-b]. Ushbu kompetensiya o'quvchilarning intellektual rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va muammolarni hal etish salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metod-lardan foydalanish o'quvchilarning kritik fikrlashini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Sinkveyn", "B-B-B" kabi metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, savol berishga va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga undaydi" [7; 67-b].

Shuningdek, refleksiv faoliyatning tashkil etilishi ham o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Dars yakunida o'quvchilarning "Bugun men nimani o'rgandim?", "Menga nima qiyin bo'ldi?" kabi savollar asosida fikr yuritishi kritik tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi" [8; 58-b].


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o'quvchilarning kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. "Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kritik fikrlashni rivojlantirish jarayoni o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalari bilan uzviy bog'liqdir" [9; 25-b].

Pedagog olimlar o'qish savodxonligini shaxsning funksional kompetensiyalarini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida baholaydilar. Xususan, "Anderson va Krathwohlning taksonomik yondashuvida o'quvchilarning bilimlarni eslab qolishdan boshlab, tahlil qilish, baholash va yaratish darajasigacha bo'lgan kognitiv faoliyatlari kritik fikrlashning tarkibiy qismi sifatida ko'rsatib o'tiladi" [10; 19-b].

Djon Dyui kritik fikrlashni ""refleksiv tafakkur" tushunchasi orqali izohlaydi hamda insonning muammoli vaziyatlarni chuqur o'ylab tahlil qilishi va asoslangan qaror qabul qilishi bilan bog'laydi" [11; 37-b]. Mazkur nazariya bugungi kunda o'qish savodxonligi darslarida muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ilmiy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

"Vigotskiy ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit va muloqotning roliga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, o'quvchilar o'zaro hamkorlik jarayonida fikrlash faoliyatini rivojlantiradilar" [12; 62-b]. Shu sababli o'qish savodxonligi darslarida guruhli ishlar, munozaralar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning kritik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ




kabi ko'nikmalar majmui sifatida tavsiflangan [13; 45-b].

Boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid tadqiqotlarda o'qish savodxonligi darslarining kritik fikrlashni rivojlantirishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan. "Ro'ziyeva o'z tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn bilan ishlash faoliyati ularning tafakkurini rivojlantirishda asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi" [14; 97-b].


Ilmiy manbalar tahlili asosida quyidagi didaktik shart-sharoitlar kritik fikrlashni shakllantirishda muhim omillar ekanligi aniqlandi:

1.Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish;
2. Interfaol metodlardan tizimli foydalanish;
3.Muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash;
4.Refleksiv faoliyatni tashkil etish;
5.Matn tahliliga asoslangan topshiriqlardan foydalanish;
6.O'quvchilarni mustaqil fikr bildirishga rag'batlantirish;
7.O'qituvchi va o'quvchi hamkorligini rivojlantirish.

Mazkur tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim hamda konstruktivistik pedagogika tashkil etdi.



Tajriba-sinov ishlari umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida olib borildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning:



kabi ko'nikmalari o'rganildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: 1-bosqich – diagnostik bosqich.

Mazkur bosqichda o'quvchilarning mavjud o'qish savodxonligi va kritik fikrlash darajasi aniqlandi.

2-bosqich – tajriba-sinov bosqichi.

Bu bosqichda o'qish savodxonligi darslarida interfaol metodlar, refleksiv topshiriqlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan metodik tizim joriy etildi.

3-bosqich – yakuniy tahlil bosqichi.

Mazkur bosqichda tajriba natijalari statistik jihatdan tahlil qilinib, metodikaning samaradorligi baholandi.

Tajriba davomida quyidagi interfaol metodlardan foydalanildi:"Aqliy hujum", "INSERT", "Klaster", "Sinkveyn", "B-B-B" strategiyasi, debat va munozaralar, refleksiv yozuvlar.

Mazkur metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash hamda matnni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tajriba-sinov ishlari davomida o'qish savodxonligi darslarida kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar va muammoli topshiriqlarning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, ularning boshlang'ich hamda yakuniy natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarning: matnni tushunish, matn mazmunini tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish, savollar tuzish, muallif pozitsiyasini baholash, dalillangan fikr bildirish ko'nikmalari monitoring qilindi.

Dastlabki diagnostik natijalar o'quvchilarning aksariyatida matnni yuzaki tushunish ustun ekanligini ko'rsatdi. O'quvchilar ko'proq tayyor ma'lumotlarni qabul qilishga moyil bo'lib, mustaqil fikr yuritish va muammoli vaziyatlarga nisbatan tahliliy yondashishda qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Tajriba bosqichida o'qish savodxonligi darslari interfaol metodlar asosida tashkil etildi. Xususan: "INSERT" texnologiyasi, "Klaster" metodi, "Sinkveyn", "B-B-B" strategiyasi, refleksiv yozuvlar, debat va munozara usullaridan foydalanildi.

Mazkur metodlar o'quvchilarning matn bilan ishlash jarayonidagi faolligini oshirdi va ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirdi.

"INSERT" texnologiyasi asosida o'quvchilar matnni o'qish jarayonida: oldindan bilgan ma'lumotlarini, yangi ma'lumotlarni, tushunarsiz jihatlarni, qiziqarli faktlarni ajratib bordilar. Bu esa o'quvchilarning matnni ongli ravishda o'qishi va tahlil qilishiga yordam berdi.

"Klaster" metodidan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va fikrlarni tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirdi. O'quvchilar matndagi asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajrata olishni o'rgandilar.

Muammoli savollar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar: sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, voqealarni baholash, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, alternativ yechimlarni izlash, dalillangan xulosalar chiqarish kabi faoliyatlarni amalga oshirdilar.

Tajriba-sinov natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni qayd etdi.

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

1-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kritik fikrlash qobiliyatlari darajalarining taqqoslama natijalari (%)

Guruhlar	Past daraja	O'rta daraja	Yuqori daraja
Nazorat guruhi	39 %	45 %	16 %
Tajriba guruhi	18 %	44 %	38 %

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi o'quvchilarning yuqori darajadagi kritik fikrlash ko'rsatkichlari sezilarli ravishda oshgan. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajadagi natija 38 foizni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 16 foizni tashkil etdi.

Bu holat interfaol va muammoli metodlar asosida tashkil etilgan o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Past darajadagi ko'rsatkichlarning kamaygani ham metodikaning samaradorligini ko'rsatadi. Nazorat guruhida past darajadagi o'quvchilar ulushi 39 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich 18 foizga tushdi.

Tajriba davomida refleksiv faoliyatning tashkil etilishi ham muhim pedagogik natijalarni berdi. Dars yakunida o'quvchilarning:

— "Bugun men nimani bildim?";

— "Qanday xulosa chiqardim?";

— "Qaysi savol meni o'ylantirdi?" kabi refleksiv yozuvlari ularning o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kritik fikrlashni shakllantirishda quyidagi didaktik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

1.Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish;

2.Interfaol metodlardan tizimli foydalanish;

3.Muammoli ta'lim elementlarini qo'llash;

4. O'quvchilarni erkin fikr bildirishga rag'batlantirish;

5.Refleksiv faoliyatni rivojlantirish;

6.Matn tahliliga asoslangan topshiriqlarni ko'paytirish;

7.O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik muhitini yaratish.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o'qituvchining pedagogik mahorati va metodik kompetentligining yuqori bo'lishi kritik fikrlashni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini tinglashi, ularni savol berishga undashi va demokratik ta'lim muhitini yaratishi zarur. Shuningdek, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhim didaktik omil sifatida namoyon bo'ldi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli, ko'rgazmali va interfaol topshiriqlar kritik fikrlashning samarali rivojlanishiga yordam beradi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang ekanligi aniqlandi. Xususan, PISA dasturida ham o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va baholash kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari o'qish savodxonligi darslarini interfaol, muammoli va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy tafakkuri hamda mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tajriba-sinov ishlari davomida interfaol metodlar va matn tahliliga asoslangan topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning matnni chuqur anglash, asosiy g'oyani aniqlash, dalillangan fikr bildirish va muammoli vaziyatlarga tanqidiy yondashish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlandi.

Tadqiqot davomida kritik fikrlashni rivojlantirishning muhim didaktik shart-sharoitlari sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, interfaol metodlardan tizimli foydalanish, muammoli topshiriqlarni tashkil etish, refleksiv faoliyatni rivojlantirish hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etishi belgilandi. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati va metodik kompetentligining yuqori bo'lishi o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirishda muhim omillardan biri ekanligi tasdiqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish savodxonligi darslarini takomillashtirish, o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish va xalqaro baholash dasturlariga mos kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari asosida kritik fikrlashni rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqish mazkur yo'nalishdagi istiqbolli tadqiqotlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – Updated ed., 2020. 16-b
2.OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023. 74-b
3.Ro'ziyeva D.I. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. 92-b
4.Dewey J. How We Think. – New York: Dover Publications, 2018. 33-b
5.OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023. 81-b
6.Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Boston: Pearson Education, 2021. 41-b
7.Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. 67-b
8.Vygotsky L.S. Thought and Language. – Moscow: Pedagogika, 2020. 58-b
9.Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: David McKay Company, 2019. 25-b
10.Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – Updated ed., 2020. 19-b
11.Dewey J. How We Think. – New York: Dover Publications, 2018. 37-b
12.Vygotsky L.S. Thought and Language. – Moscow: Pedagogika, 2020. 62-b
13.Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Boston: Pearson Education, 2021.
14. Ro'ziyeva D.I. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. 97-b.